

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

Sh.Amil, A.G.Sabirdinov	
XX asr o'zbek lirikasi va Oybek she'riyati	6
N.P.Farmonov	
Realistik va psixologik tasvir: "Girdob" romani qahramonlari misolida	14
N.A.Abdullayeva	
Gender leksik birliklarining lingvomadaniy ko'rinishlari	18
A.Eshniyazova	
Muallif konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari.....	22
Z.Q.Eshanova	
Istiqlol davri o'zbek she'riyatida xalq dostonlari sintezi	27
J.B.Sayidolimov, I.B.Xabibullayev	
"Qisasi rabg'uziy" ning struktur tuzilishi	33
I.B.Xabibullayev	
Badiiy adabiyotda oila mavzusining shakllanishi va rivoji	42
E.G'.Qurbonova	
Lutfiy lirikasida badiiy mazmun va irfoniy talqin uyg'unligi	47
U.S.Ochilov	
Stiven Kingning «It» va «Green mile» romanlarida magik realizmning badiiy talqini.....	52
G.M.Kirgizova	
Iqbol Mirzo she'rlarida band tizimlari	58
N.N.Sharipova	
Xamsanavislik an'anasi va unda Toshlijali Yahyobey "Gulshan ul-anvor" dostonining o'rni	63
S.A.Olimjonov	
"Uch og'ayni" romanida "yo'qotilgan avlod" tasviri	69
I.M.Jurayev, H.A.Jo'rayev	
"Temur tuzuklari" hamda "Boburnoma"da an'ana va vorisiylik.....	74

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova, K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tilini lingvistik o'rganishning nazariy asoslari.....	79
Sh.Sh.Uralova	
Ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlari nomlarining suffikslar yordamida hosil bo'lishi va ularning so'z yasash modellari.....	83
I.F.Porubay, F.R.Nishanova	
Zamonaviy global jamiyat sharoitlarida lingvomadaniy birliklarning rivojlanish omillarining tahlili...	90
M.S.Sayidazimova	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'lining bo'lishsizlik shaklini yasovchi ayrim vositalar	96
X.G'.Raximboyeva, M.G'.Matlatipova	
O'zbek tili iyerarxik korpusini yaratishda ma'lumotlar bazasini yig'ish, gaplarni annotatsiyalash va tokenlash jarayoni.....	100
Л.Мамедзаде	
Приемы рифмообразования в паремиологических единицах турецкого и азербайджанского языков.....	107
N.A.To'xtasinova	
Pretsedent nom, jumla va matnlarning mediamatn birliklari sifatidagi tadqiqi	113
Z.I.Akbarova	
Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan "Ahl" komponentli lug'aviy birliklarning nutq uslublari doirasida qo'llanilishi	118
Ё.М.Алтишева	
Из истории изучения религиозных терминов в отечественной терминологии	121



UO'K:821.512.133

ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK SHE'RIYATIDA XALQ DOSTONLARI SINTEZI

СИНТЕЗ НАРОДНЫХ ЭПОСОВ В УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ ПЕРИОДА
НЕЗАВИСИМОСТИTHE SYNTHESIS OF FOLK EPOS IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE
PERIODEshanova Zilola Qo'chqarovna 

Andijon davlat universiteti doktoranti, f.f.b.f.d.(PhD), dotsent

Annotatsiya

Maqolada istiqlol davri o'zbek she'riyatida xalq dostonlari syujeti, motivlari sintezi asosida she'rlar yaratish an'anasi davom ettirilayotganini, davr adabiyotining estetik ehtiyojiga javob beruvchi bunday an'ana davr ijodkorlari ijodida faollashib, ijodkorning g'oyaviy maqsadiga xizmat qilayotganini asoslash maqsadi qo'yilgan. Shu maqsadga erishish uchun maqolada istiqlol davri o'zbek she'riyatida xalq dostonlari epizodlari, motivlari ta'sirida yaratilgan she'rlar semiotik, struktural, germeneytik metodlardan foydalanilgan holda tahlilga tortilgan, natijada xalq dostonlari va she'riyat sintezining namoyon bo'lish jihatlari ochiqqlangan hamda quyidagi xulosalarga kelingan:

istiqlol davri o'zbek she'riyatida shoirlar xalq dostonlaridagi turli komponentlarni: obraz, syujet, motiv va ifoda usullarini she'r bilan sintezlash orqali g'oyaviy-estetik maqsadlariga erishmoqdalar; davr she'riyatida xalq dostonlaridagi obraz, syujet, motivlardan o'zgartirmagan holda hamda ularga paradoksal yondashib, modifikatsiyalash asosida foydalanish orqali lirik syujetni rivojlantirish, lirik kechinma tasvirini berish yetakchilik qiladi; Usmon Azim, Rauf Subxon, Suhrob Ziyo, Najmiddin Ermatov, Abdunabi Hamro, Nozima Habibullayeva kabi ijodkorlar lirik syujetni xalq dostonlari epizodlari va motivlari asosida rivojlantirish, lirik kechinmani talme, alluziya kabi tasvir vositalari yordamida xalq dostonlari voqealari va davr voqeligiga ishora qilish asosida ifodalash, xalq dostonlariga xos parchalardan, ifoda usullaridan analitik folklorizm sifatida foydalanish orqali xalq dostonlari komponentlarini she'rga sintezlamodalar; davr adabiyotining estetik ehtiyojiga javob beruvchi bunday an'anadan turli ijtimoiy muammolar va millat badiiy tafakkuridagi yurt taqdiriga oid masalalarni yoritishda ijodiy foydalanmoqdalar.

Аннотация

В статье ставится цель обосновать, что в узбекской поэзии периода независимости продолжается традиция создания стихов на основе синтеза сюжетов и мотивов народных эпосов, что эта традиция, отвечающая эстетическим потребностям литературы того периода, активизируется в творчестве творцов того периода и служит идейной цели поэта. Для достижения этой цели в статье анализируются стихотворения, созданные под влиянием эпизодов и мотивов народных эпосов в узбекской поэзии периода независимости, с использованием семиотических, структурных, герменевтических методов, в результате чего раскрываются аспекты проявления синтеза народных эпосов и поэзии, и делаются следующие выводы:

В узбекской поэзии периода независимости поэты достигают своих идейно-эстетических целей, синтезируя с поэзией различные компоненты народных эпосов: образ, сюжет, мотив и способы выражения; в поэзии данного периода ведущее место занимает развитие лирического сюжета, передача образа лирического переживания за счет использования образов, сюжетов, мотивов в народных эпосах без изменений и на основе парадоксального подхода и модификации; такие творцы, как Усман Азим, Рауф Субхон, Сухроб Зиё, Нажмиддин Эрматов, Абдунаби Хамро, Нозима Хабибуллаева, развивают лирический сюжет на основе эпизодов и мотивов народных эпосов, выражают лирическое переживание с помощью таких изобразительных средств, как талмех, аллюзия, на основе отсылки к событиям народных эпосов и действительности эпохи, синтезируют компоненты народных эпосов в стихотворение, используя фрагменты и методы выражения, характерные для народных эпосов, в качестве аналитического фольклоризма; они творчески используют эту традицию, отвечающую эстетическим потребностям литературы того периода, для освещения различных социальных проблем и вопросов, связанных с судьбой страны в художественном мышлении нации.

Abstract

This article aims to substantiate that the tradition of creating poems based on the synthesis of plots and motifs from folk epics continues in Uzbek poetry of the independence period. This tradition, which meets the aesthetic needs of the literature of that era, has become increasingly active in the works of poets of the period and serves the poet's ideological goals.

To achieve this aim, the article analyzes poems influenced by episodes and motifs of folk epics in Uzbek poetry of the independence period, using semiotic, structural, and hermeneutic methods. As a result, it reveals how the synthesis of folk epics and poetry is manifested, leading to the following conclusions:

Poets of the independence period achieve their ideological and aesthetic objectives by synthesizing various components of folk epics—such as imagery, plot, motifs, and expressive methods—with poetic form. In this poetry, the development of lyrical narrative plays a leading role, conveying lyrical experience through both unaltered and paradoxically reinterpreted elements of folk epics.

Poets such as Usmon Azim, Rauf Subhon, Sukhrab Ziyov, Najmiddin Ermatov, Abdunabi Hamro, and Nozima Khabibullayeva develop lyrical plots based on epic motifs and episodes. They express lyrical experiences through figurative devices such as talmeh and allusion, making references to events from folk epics and contemporary realities. These poets creatively synthesize components of folk epics into their poems by employing traditional fragments and expressive means as a form of analytical folklorism. This tradition is also used to address various social issues and matters related to national destiny in the artistic consciousness of the era.

Kalit so'zlar: sintez, xalq dostonlari, motiv, syujet, lirik kechinma, baxshi obrazi, epik homiy, paradoks, allyuziya, talmeh.

Ключевые слова: синтез, народные дастаны, мотив, сюжет, лирическое переживание, образ бахши, эпический покровитель, парадокс, аллюзия, талмех.

Key words: synthesis, folk dastans, motif, plot, lyrical experience, bakhshi image, epic patron, paradox, allusion, talmeh.

KIRISH

Istiqlol davri o'zbek adabiyotida xalq dostonlari sintezi asosida, xususan, xalq dostonlari syujeti va motivlari asosida shakllangan va baxshi obrazi yetakchilik qilgan she'rlar yaratish an'anasi rivojlandi. 2016-yildan so'ng baxshiyona asarlar yaratilmadi, biroq xalq dostonlari syujeti, motivlari hamda baxshi obrazi sintezi, baxshi ijrosiga xos ifoda uslubi asosida she'rlar yozish davom etdi. Ushbu maqolamizda istiqlo davrida baxshi obrazi yetakchilik qilgan hamda xalq dostonlari epizodlari, motivlari ta'sirida yaratilgan she'rlarni tahlil qilish orqali xalq dostonlari va she'riyat sintezining namoyon bo'lish jihatlari ochiqlashni maqsad qildik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Folklorizmlarning she'riyat bilan sintezlashishi L.Sharipova, Q.Yo'Ichiyev, M.Xolova, G.Oripova, Q.Mamiraliyev kabi olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan. Xususan, L.Sharipova XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida folklorning o'rnini masalasini o'rganadi [Sharipova, 2019, b.89]. Q.Yo'Ichiyev Anvar Obidjon ijodidagi uchlik she'rlar poetikasini yoritish jarayonida shoirning tush motivi va Go'ro'g'li obrazidan ijodiy foydalanganini *ta'kidlaydi* [Yo'Ichiyev, 2016, b.185]. M.Xolova esa o'zbek modern she'rlaridagi mifologik obrazlarning o'rnini yoritadi [Xolova, 2018, b.18]. G.Oripova mustaqillik davri... ijodkorlari ham o'z she'riy asarlarida xalq og'zaki ijodiga mansub janr, syujet, motiv kabilarga murojaat qilib, shakliy-mazmuniy izlanishlar borasida ham muvaffaqiyatlarga erishayotganini, o'zbek xalq og'zaki ijodining ta'siri ham ijroviy lirikaga xos she'rlarning imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilayotganligini ochiqlaydi [Oripova, 2024, b.86]. Q.Mamiraliyev "istiqlol davri o'zbek she'riyatiga folklorizmning ta'sirini o'rganadi va davr she'riyatidagi folklorizmlarni badiiy modifikatsiyaning bir turi ekanligini asoslaydi [Mamiraliyev, 2024, b.97-121]. Yuqoridagi adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, xalq dostonlari va she'riyatning sintezlashuv jarayonlarini yoritish tadqiqotlar uchun obyekt bo'lgan emas.

Maqolada xalq dostonlari epizod va motivlari hamda baxshi obrazi sintezi asosida yaratilgan she'rlarni semiotik, struktural, germeneytik metodlardan foydalanilgan holda tahlil qilindi va istiqlo davrida xalq dostonlari va she'riyatning sintezlashuv jarayonlari yuz bergani asoslandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Istiqlol davrida xalq dostonlari va she'riyatning sintezlashuvi jarayonlari yuz berdi. Xususan, xalq dostonlaridagi turli komponentlar (obraz, syujet, motiv, ritm va ifoda usullari) she'riyat bilan sintezlandi va shoirning g'oyaviy maqsadi ifodasiga xizmat qildi. XX asrning 80-90-yillar o'zbek she'riyatida baxshi obrazi yetakchi obraz sifatida kelgan, unga murojaat orqali zamonaviy mavzular qalamga olingan she'rlar yaratildi. Bunday she'rlarda shoir o'z davri voqeligidagi muammolarni, illatlarni baxshi tilidan ifodalaydi. Usmon Azimning "Mamatrayim baxshining bir davrada aytgani" she'rida Mamatrayim baxshi obrazi yetakchilik qiladi. Shoir she'rdagi baxshilarga xos davrani boshqarish, xalq dostonlari ijrosi orqali yoshlarni tarbiyalash kabi jihatlardan Mamatrayim baxshi obrazini yaratishda, she'r mazmun-mundarijasini shakllantirishda ijodiy foydalangan. She'rdagi baxshi davrada o'tirgan "umridan omad qochgan, etigi qiyshayib qolgan"

ADABIYOTSHUNOSLIK

insonlarga suyanch bo'lmay, aksincha "oyog'i mudom yarqiragan puldorlarning girdida darrov parvona bo'lgan" [Azim, 1986, b.89] bolalarga nasihat qiladi. She'ning lirik syujeti baxshi obrazining millat yoshlarini ma'naviy tarbiyalashga yo'naltirilgan kechinmalari asosida rivojlantirilgan.

Epik ijodkor – baxshi obrazi haqida J.Eshonqul: "... juda ko'plab epik asarlarga sochilib ketgan Qo'rquq ota, Soqibulbul, Oshiq G'arib, Oshiq Albani, Oshiq Mahmud kabi obrazlar... xalqning baxshi, o'zon, oshiqlar haqidagi qadim tasavvur va e'tiqodlarining sintezi sifatida paydo bo'lganligini, baxshichilikning kult darajasiga ko'tarilganini ko'ramiz" [Eshonqulov, 2025, b.187]- deydi. Olim ta'kidlagan eposdagi baxshilarning "millatning yo'l boshchisi, donishmandi, qahramoni, patriarx shomon qiyofasini o'zida mujassam etgan ulkan epik ijodkor, karomatgo'y" [Eshonqulov, 2025, b.192] sifatidagi talqinlaridan davr she'riyatida ijodiy foydalanildi. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar, istiqbolga erishish zarurati kabi omillar ta'sirida yuzaga kelgan ehtiyoj tufayli baxshi obrazi davr she'riyatida yetakchi obrazlardan biriga aylandi. Baxshi obrazi yetakchi obraz sifatida kelgan yoki baxshilarga atab yozilgan she'rlarda baxshi obrazi millatni uyg'otuvchi, erk sari yetaklovchi, millat dardlarini kuylovchi, yoshlarni ma'naviy tarbiyalovchi, yo'l boshchi sifatida namoyon bo'ldi. Epik ijodkor bo'lgan baxshi obrazining folklordagi invariant modelining she'riyatga transformasiyalashuvi va variantlashuvi davr adabiyotida keng planli voqelik tasviridan ko'ra siyiq, falsafiy mushohadalarga boy she'rlarning yaratilishiga ehtiyojning kuchayganligi bilan izohlanadi.

Usmon Azimning "Go'ro'g'li" she'ri xalq dostonlari syujeti ta'sirida shakllangan. Besh banddan iborat she'ning har bandi ilk misrasidagi "Bu osmon — zil-zambil" takrori lirik subyekt ruhiyatidagi imkonsizlik, chorasizlik, armonga aylangan maqsad kabi iztiroblar, kechinmalar ifodasi ta'kidiga xizmat qilgan. Ijroviy lirikaga mansub bo'lgan ushbu she'rda lirik kechinma Go'ro'g'li tilidan ifoda etiladi. She'r sarlavhasining "Go'ro'g'li" deb nomlanishi ham uning lirik subyekt doston qahramoni ekanligidan xabar beradi. Mazkur davr she'riyatidagi folklor an'analari ta'sirida shakllangan bunday ijroviy lirikaga xos she'rlarning asosiy qahramonlari doston personajlari (Go'ro'g'li, Alpomish, baxshi) bo'lib, bunday she'rlarda davr bilan bog'liq muammolar, millat badiiy tafakkuridagi yurt taqdiriga oid masalalar ko'tarilgan.

Bizga ma'lumki, Go'ro'g'liga Chambil yurtini qurish, uni to qiyomatga qadar boshqarish taqdir qilinganligi qirq chilton tomonidan Asqartog'da bashorat qilinadi. She'ning ilk bandida bunday og'ir vazifani bajarishga bel bog'lagan lirik qahramon yer kechib maqsad sari intilayotgani haqidagi tasvirlar beriladi (Yer kechib boryapman tizzamga qadar./ Qirq kunlik yo'l erur maqsadim — Chambil [Azim, 1995, b.277]).

She'rda xalq dostonlari syujetidagi voqealarga zid qo'yilgan tasvirlar, paradoksal munosabat mavjud. Jumladan, "Tablaniy eshigin ocholmas G'iro't", "yarmi yerga botgan Asqartog'", "Qaytib Vayanganga ketgan Hasanxon", "Vo darig', o'lgandir Avazim — qo'zim", "Qirq yigit boshimni qirq yovga sotdi", "Boshimda charx urar qirq chilton gangib" [Azim, 1995, b.277] kabi tasvirlardan millat erkinligi yo'qolgani, uni tiklashga lirik qahramonning harakat qilayotgani anglashiladi.

"Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida qahramonning taqdiriga yozilgan missiyani amalga oshirishda ko'makchi bo'lgan G'iro't oti ham Asqartog'dagi chiltonlar g'orida antahur mayini ichirish tarzida tarbiyalanadi [Eshanova, 2021, b.91]. She'rda esa Go'ro'g'li maqsad sari yer kechib piyoda ketyapti, sababi ularning homiysi bo'lgan "Yunus, Misqol pari shirin uyquda", G'iro't esa tablaniy eshigin ocholmayapti. Asqartog'ning Sarqamish cho'lida xayol surib, yarmi yerga botgan holda turishi esa uning homiy eranlar makoni bo'lmay qolgani, ulug'vorligining so'nishini anglatgan. Go'ro'g'li Chambil yurtini qurish va boshqarishda homiy eranlar Asqartog'da o'g'il bo'lishini bashorat qilgan Xasanxon va Avazxon, shuningdek, qirq yigitga tayanadi. She'ning keyingi bandlarida Xasanxonning Vayanganga ketishi, Avazning o'lishi, qirq yigitning Go'ro'g'li boshini qirq yovga sotishi kabi Go'ro'g'lining armonli kechinmalari tasviri orqali yurt ozodligi, uni dushmandan himoya qilish orzusi ushalmagani, qahramonlari o'ldirilgan va parokandalikka yuz tutgan el holati haqidagi millat dardi yoritilgan. She'ning keyingi bandida esa Go'ro'g'lining bezovta holda boshida charx urayotgan sodiq pirlariga, qirq chiltonga murojaati orqali ("Men yerga kirdim-ku — chiqmasdan changim" kabi) maqsadiga yeta olmay, armonda qolgani ta'sirchan beriladi. Usmon Azim she'ning xulosa vazifasini bajaruvchi so'nggi bandida Go'ro'g'lining sho'irga murojaatini berish, terma janriga xos "Go'ro'g'lidan aytgin!" metonimiyali birikmani qo'llash orqali yurt ozodligi yo'lida kurashuvchi Go'ro'g'lilarni tarbiyalashga chiqaradi:

Go'ro'g'lidan aytgin! Har bir so'zing o'ng.
Shoir, men — vujudman. Sen — tirik yurak.
Mendan uyalmagin. Men kirgandan so'ng

Zax yerning osti ham — osmondan yuksak [Azim, 1995, b.277].

Usmon Azimning "Go'ro'g'li va Alpomish" she'rida xalq dostonlari syujetiga va qahramonlariga ishora qilish – talmeh san'ati asosida el-u yurt manfaati yo'lida qahramonliklar ko'rsatishga chaqiradi. Shoir "Do'stlar, keldi uyg'onmoq fasli" deya ularni barqaror bo'lgan ahdi sari undaydi:

Elni tashlab ketmasligi shart
El suyanchi Go'ro'g'li nomdor!

Go'ro'g'lisiz el bo'lmas, axir,
Alpomishsiz mamlakat yo'qdir". [Azim, 1995, b.278]

Abdunabi Hamroning "Sarbadorlar qo'shig'i" (2014) she'ri ham adabiyotdagi an'anaviylik va vorisiylik ta'sirida yaratilgan bo'lib, unga "Kuntug'mish" dostonidan olingan "Assalomu alaykum, dorning og'ochi!" parchasi epigraf qilib qo'yilgan. "Kuntug'mish" dostonidagi ushbu epizoddan ijodiy foydalanish ozarbayjon shoirlari Rustam Behrudiniyning "Salom, dor og'ochi" (1989), Akif Bagirovning "Assalomu alaykum, dorning og'ochi!" (1986), o'zbek shoirlari Rauf Parfining "Assalomu alaykum, dorning og'ochi" (1988), Dilmurod Sayyidning "Sadoqat yiqildi ishq maydonida" (2004) kabi she'rlarida uchraydi. Bu haqda Z.Isomiddinov "Bir misraning ilhomi" nomli maqolasida batafsil ma'lumot beradi va bu misrani "baxshiyona ijod" sifatida baholaydi [Isomiddinov, 2024, b.36-37]. Haqiqatda ushbu dostonida yozma adabiyot an'alarining xalq dostonlariga sintezi asosida yaratilgan parchalar mavjud va ularning doston kompozitsiyasiga kirib qolishi baxshining Buxoro madrasalarida o'qigani va yozma adabiyot namunalarini yaxshi bilgani bilan izohlangan talqinlar mavjud [Mirzayev, T., Turdimov, Sh., Eshonqulov, J., & Tilovov, A., 2022, b.135-137]. Ergash Jumanbulbul baxshining badiha tarzida yaratgan ushbu misrasi ham dostonidagi parchaning har bir bandi oxirida refren sifatida keladi va bu an'ana yuqoridagi barcha shoirlarda shunday davom ettirilgan. O'xshatma tarzida yozilgan ushbu she'rlarda bu syujet motivi erksizlik, Turon ellarining birligi orzusi, turkiylarda birlik yo'qligi, ishqqa sadoqatning, vafoning yo'qolgani kabi turli g'oyaviy maqsadlar ifodasi uchun xizmat qilgan.

Bilamizki, bu misra dostonida Kuntug'mishning bolalari dorga osilayotgan paytda Xolbeka tilidan Bobo Zangi podachidan madad so'rab, dorga qarata aytilgan. Abdunabi Hamro "Sarbadorlar qo'shig'i" she'rida ayni shu syujet motivi sintezidan ijodiy foydalanadi. Bu analitik folklorizm she'rning to'rt misrali bandining oxirida refren sifatida takrorlangan. She'rda Amir Temur hukmronlikka kelish arafasida yuz bergan qo'zg'olon ishtirokchilari bo'lgan sarbadorlar kechinmalarini berish asosida shoir o'z zamonidagi adolatsizliklar, so'zning bo'g'ilishi, maddoh, kazzob va o'g'rilarining ko'payishi, rostgo'ylar ko'zining yoshlanishi bilan bog'liq ijtimoiy muammolar ta'sirida yuzaga kelgan kechinmalarini ifodalaydi:

Saltanatlar kelib-ketar, sen borsan
Nahot har davrga zarur, darkorsan,
Ayt, qachon qolgaysan ishsiz, bekor san?
Assalomu alaykum, dorning og'ochi.

Istiqlol davrida ijod qilayotgan yosh shoirlar ham turli mavzularda she'rlar yaratishda xalq dostonlari syujet va motivlari sintezidan mahorat bilan foydalanmoqdalar. Suhrob Ziyoning "Alpomish haqida g'amgin she'r"ida Usmon Azimning "Go'ro'g'li" she'ridagi kabi xalq dostonlari syujeti va motivlariga paradoksal yondashgan holda foydalaniladi. She'rga "Alpomish" dostoni epizodlari asos qilib olingan bo'lsa-da, dostonidagi epik voqelikka zid bo'lgan: "O'q tekkan burgutdek qulochin yozib, Tuproqqa bag'rini berdi Alpomish", "Qanoti qayrilib ingrar Boychibor", "Yortiboylar chiqdi poygakdan to'rga", "Qulab tushmayapti nega Asqartog' – Alpomish bag'rini tuproqqa berdi" kabi tasvirlar orqali shoir yurtning ozodligi, millatning qismati kabi dolzarb muammolarni yoritadi. Shoir she'rni millatning Alpomishlarini yurtning birligi kuylangan dostonlar uyg'otishi haqidagi optimistik yakun bilan xulosalaydi:

Bir kun bu millatning Alpomishlarin
Qo'shiqlar uyg'otar Qaldirg'och bo'lib.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Unda alp ko'ksini bermaydi yerga,

Unda Chibor otga urilmas gulmix[Ziyo, 2021, b.83].

Suxrob Ziyo "Yoy-yoy" she'rida Bodombikach, baxshi, shoir obrazlari orqali millat, uning erki, tili masalasi haqidagi fikrlarini beradi. She'ning ramka unsuri bo'lgan epigrafdan "Folklorshunos olim Shomirza Turdimovga" degan qayd hamda dostonidan keltirilgan parchaga berilgan olimning fikri mavjud. Unda "Alpomish chohda qoldi. Ultontoz taxtga mindi. Kelibog Barchinga og'iz soldi. Bodom bikach o'g'liga to'y boshladi. Qo'ng'iroq elini "yoy-yoy" aytib to'yga chorladi. Bodom bikachning tili chuchuk. U "r" ni "y" deb talaffuz qilardi...", deyiladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, she'r "Alpomish" dostonidagi Qultoy qiyofasida kelgan Alpomish va Ultontozning onasi Bodombikach o'rtasidagi o'lan aytish epizodi va uning talqini ta'sirida yaratilgan. Bodom bikachning tili chuchukligi ramz sifatida uning cho'riligi va so'zining hech kimga o'tmasligini anglatishi Shomirza Turdimov tomonidan aytilgan. Shoir ayni talqinni tilini unutgan va erk haqidagi haqiqatni ayta olmagan el haqidagi qarashlarini "tili bor-u, ori yo'q Ulus endi qaytadi?", "r"ni "y" deb tursa ham, elning tili o'lmaydi" kabi misralarda berishda foydalanadi. She'rda Bodom bikach tilidan:

"O'lan aytgan xo'b qoyim

Tilim boydi, yoy-yoy.

Yut egasi bek Ulton

Ulim boydi, yoy-yoy" [Ziyo, 2024, b.124] o'lani dostonidan aynan keltiriladi va bu analitik folklorizm dostonidagi yurt boshqaruvi nолоyiq insonga qolgani, yurtning erki, ori masalasining unutilishi haqidagi muallif maqsadini yuzaga chiqarishda vosita bo'lgan. Bodom bikach tilidan berilgan o'lan doston xronotopiga xos bo'lsa, Ultondek nолоyiq biyni alqagani uchun to'n kiygan zamona shoiri tilidan berilgan yor-yor shoir zamoniga yaqin davr manzaralarining badiiy tasviri edi:

"Qulluq bizga yopdingiz

Shoyi kiyim, yoy-yoy.

Tursin dunyo turguncha

Ulton biyim, yoy-yoy [Ziyo, 2024, b.124].

Shoir she'rda "Ultonlarga bosh egib, Qolay dema omonda, Alpomishing o'lmagan, Alpomishing zindonda" [Ziyo, 2024, b.125] kabi fikrlarini berish orqali yurtni uyg'oqlikka chaqiradi.

Baxshi shomonlik mifologiyasi asosida shakllangan obraz bo'lib, u ruhlar olami bilan muloqot qila oladigan, o'lgan insonlarni ham tiriltira oladigan magik qudratga ega inson sifatida talqin qilingan. Davrlar o'tishi bilan bu obrazning transformatsiyaga uchrashi natijasida uning mohiyati doston va o'lanlar aytib, xalqni ma'naviy tarbiyalovchi, undagi alplik xususiyatlarini uyg'otib, ramziy tiriltiruvchi inson kabi ijtimoiy mazmunga o'zgargan. Shoir she'rni ayni shu obraz haqidagi mifologik qarashlar sintezi asosida uning dostonlar aytib, xalq orasidan alplarni saylab olishi, uni tarbiyalashi haqidagi fikrlarini berish bilan xulosalaydi:

So'zim tinglab ko'ksingga

Qasos keldi, yor-yor,

Tog' boshidan "hayt" degan

Ovoz keldi yor-yor.[Ziyo, 2024, b. 125].

Najmiddin Ermatovning "Hay,yor-a!" deb boshlanuvchi she'ri xalq baxshilariga xos ifoda uslubi asosida yaratilgan. Sakkiz misradan iborat olti bandli she'r folkloridagi she'riy asarlarga xos 7 bo'g'inli barmoq vaznida shakllantirilgan. She'rda mazkur davr ijodkorlari poetik tafakkuriga xos bo'lgan millat dardi, uning o'tmishi va kelajagi haqidagi qayg'ular, iztirobli kechinmalar suratlantiriladi. She'ning har bir bandida ritorik so'roq (Kuyuk ko'ngil ohidan / Bug'langan Orol qayda, Haq nomidan so'z ochib, /Xalq nonidan ursalar, So'zlay desang so'zingni/ Qafas qo'rqitib tursa) va baxshilar nutqiga xos ifoda takrori (Hay, yor-a!), talmeh (Jortiboy obraziga ishora) kabi vositalar orqali shoirning istibdod davri siyosati, Orolning qurishi, adolatsizlikning urchishi kabi ijtimoiy muammolar yoritilgan:

Hay, yor-a!

Otamos yo'qsillik

Tag'in nasliga tushsa,

Jortiboyi ko'p yurtda

But qayda, kamol qayda?[Ermatov, 2024, Noyabr 11]

Nozima Habibullayevaning “Burg’u” she’rida “Alpomish” dostonidagi to’rt shartni bajarish jarayonida Barchinning Alpomishga “to’ram” deb murojaat qilishi orqali uni ruhlantirish motivi sintez qilingan. Burg’u, odatda, jangga chaqirish uchun chalinadi. She’rning har bandining ilk misrasida “Vatan sha’ni uchun kurashsang, to’ram” takrori berilgan. She’rning lirik subyekti yorini vatan sha’ni uchun kurashga chorlayotgan qiz. She’rda “Chilla bag’ishlayman chiltonlaringga”, “Tug’ingda ko’kbo’ri tinmay uvillab, Oyni nog’orangga to’ldirib qaytar” kabi mifologemalar biror maqsadga erishish uchun chilla o’tirish, chiltanlar homiyligini istash, totem ajdod ko’kbo’ri madadini so’rash kabi mifologik qarashlarning she’r matniga sintezlanishiga xizmat qilgan. She’rning so’nggi bandi “qon yuvgan kechaga” ishora qilish (alluziya tasvir vositasi), u kechada o’lgan bobolar ruhining kuyuklaridan o’sgan avlod o’laroq shakllangan lirik subyektning chaqirig’i “Vatan sha’ni uchun kurashgil, to’ram!...” shaklida lirik xulosa sifatida beriladi:

La’nati miltiqning tupuklarini,
Qon yuvgan kechaning sadolarimiz.
Gul unib ruhining kuyuklaridan
Qabrida tinch yotsin bobolarimiz.

Vatan sha’ni uchun kurashgil, to’ram!...[Habibullayeva, 2024, Noyabr 11]

Yuqoridagi bandda ajdodlar ruhining qabrda tinch yotishi uchun ularning vasiyatini amalga oshirish haqidagi mifologik qarashlar shoirning jadic ijodkorlarimiz poetik tafakkuridagi vatan, uning ozodligi, millat qayg’usi haqidagi qarashlariga uyg’un g’oyaviy maqsadi ifodasiga xizmat qilgan.

XULOSA

Istiqlol davri o’zbek she’riyatida shoirlar xalq dostonlaridagi turli komponentlarni: obraz, syujet, motiv va ifoda usullarini she’r bilan sintezlash orqali g’oyaviy-estetik maqsadlariga erishmoqdalar. Davr she’riyatida xalq dostonlaridagi obraz, syujet, motivlardan o’zgartirmagan holda hamda ularga paradoksal yondashib, modifikatsiyalash asosida foydalanish orqali lirik syujetni rivojlantirish, lirik kechinma tasvirini berish yetakchilik qiladi. Usmon Azim, Rauf Subxon, Suhrob Ziyov, Najmiddin Ermatov, Abdunabi Hamro, Nozima Habibullayeva kabi ijodkorlar lirik syujetni xalq dostonlari epizodlari va motivlari asosida rivojlantirish, lirik kechinmani talmeh, alluziya kabi tasvir vositalari yordamida xalq dostonlari voqealari va davr voqeligiga ishora qilish asosida ifodalash, xalq dostonlariga xos parchalardan, ifoda usullaridan analitik folklorizm sifatida foydalanish orqali xalq dostonlari komponentlarini she’rga sintezlamodalar. Davr adabiyotining estetik ehtiyojiga javob beruvchi bunday an’anadan turli ijtimoiy muammolar va millat badiiy tafakkuridagi yurt taqdiriga oid masalalarni yoritishda ijodiy foydalanmoqdalar.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Azim, U. (1986). Dars. She’rlar. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.
2. Azim, U. (1995). Saylanma. She’rlar. – Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. Ermatov, N. (2024, Noyabr 11). Hay, yor-al! “Izlam davrasida” <https://jadid.uz/izlam-davrasida/> saytidan olindi.
4. Eshanova Z.Q. (2021). [O’zbek xalq dostonlarida mifologik obrazlar](#). – Toshkent: Evrope facsimile Nnashriyoti.
5. Eshonqulov, J.S. (2025). Eposda baxshi obrazining badiiy talqini. (E.Shermanov, A.Norbekov, J. Eshonqulov, Mas’ul muxarrirlar), “Yangi O’zbekistonda baxshichilik san’ati: zamonaviy tadqiqotlar va istiqbollar mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya (b.187-191). Nodirabegim nashriyoti.
6. Habibullayeva, N. (2024, Noyabr 11). Burg’u. “Izlam davrasida” <https://jadid.uz/izlam-davrasida/> saytidan olindi.
7. Isomiddinov Z. (2024) Bir misraning ilhomi. Guliston jurnali, 2(1), 36-37.
8. Mamiraliyev Q.Q. (2024). Istiqlol davri o’zbek she’riyatida janrlar modifikatsiyasi. – Toshkent: Anorbooks nashriyoti.
9. Mirzayev, T., Turdimov, Sh., Eshonqulov, J., & Tilovov, A. (2022). O’zbek folklori. – Toshkent: Malikprint nashriyoti.
10. Oripova G.M. (2024). Mustaqillik davri o’zbek lirikasi: janr xususiyatlari va poetikasi. Filol. fan. dok. (DSc) ...diss. – Farg’ona davlat universiteti nashriyoti.
11. Sharipova L.F. (2019). XX asrning ikkinchi yarmi o’zbek she’riyati badiiy taraqqiyotida folklor. Filol. fanlari doktori (DSc) ...diss. – Toshkent: O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti nashriyoti.
12. Subxon R. (2015). Inonch. She’rlar. – Toshkent: O’zbekiston nashriyoti.
13. Xolova M.A. (2018). O’zbek modern she’riyati poetikasi. Filol. fan. bo’y. fals. dok. (PhD) ...diss. – Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
14. Yo’lchiyev, Q. (2016). Tipologik o’xshashliklar: birlik va uchlik. – Toshkent: Turon zamin ziyo nashriyoti.
15. Ziyov, S. (2021). *Ko’ngil yelkani: she’rlar*. – Toshkent: Zilol buloq nashriyoti.
16. Ziyov, S. (2024). Daryo. She’rlar. – Toshkent: Akademnashr nashriyoti.